O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
DAVLAT SIYOSATI VA BOSHQARUVI
AKADEMIYASI

JAMIYAT VA BOSHQARUV

Общество и управление / Society and Administration

2026/3(113)

1997-yildan nashr etiladi

ISSN: 2181-7340
E-ISSN: 3093-9208

Toshkent – 2026

O‘ZBEKISTONNING TASHQI SIYOSATI STRATEGIYASI EVOLYUTSIYASI VA TRANSFORMATSIYASI



Anvar YULDASHEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi professori, tarix fanlari doktori

Annotatsiya: O‘zbekiston Respublikasining 2012-yilda qabul qilingan Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi evolyutsiyasi va transformatsiyasi kompleks tahlil qilinib, uning milliy suverenitetni mustahkamlash hamda strategik avtonomiyani ta’minlashdagi o‘rni ilmiy jihatdan baholangan. 2016-yildan keyin shakllangan proaktiv mintaqaviy siyosat va “yaxshi qo‘shnichilik kamari” sharoitida mazkur konsepsiyaning iqtisodiy diplomatiya hamda integratsiya jarayonlariga oid jihatlari tahlil etilgan. Qozog‘iston va Qirg‘izistonning tashqi siyosat modellari bilan qiyosiy tahlil asosida O‘zbekiston tashqi siyosatining zamonaviy rivojlanish tendensiyalari yoritilgan. Shuningdek, global va mintaqaviy jarayonlarning o‘zgarishi sharoitida “muvozanatlangan ochiqlik” tamoyili hamda faol ko‘p vektorli tashqi siyosatga asoslangan yangi konseptual yondashuvni shakllantirish zarurati ilmiy jihatdan asoslangan.

Kalit so‘zlar: *tashqi siyosat, tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi, strategik avtonomiya, milliy suverenitet, mintaqaviy siyosat, yaxshi qo‘shnichilik, iqtisodiy diplomatiya, integratsiya, muvozanatlangan ochiqlik, ko‘p vektorli tashqi siyosat.*

Эволюция и трансформация внешнеполитической стратегии Узбекистана

Анвар ЮЛДАШЕВ,
Профессор Академии государственной политики и управления при Президенте Республики Узбекистан, доктор исторических наук

Аннотация: проведен комплексный анализ эволюции и трансформации Концепции внешнеполитической деятельности Республики Узбекистан, принятой в 2012 году, а также дана научная оценка ее роли в укреплении национального суверенитета и обеспечении стратегической автономии. В контексте проактивной региональной политики, сформировавшейся после 2016 года, и развития «пояса добрососедства» проанализированы отдельные аспекты концепции,

связанные с экономической дипломатией и интеграционными процессами. На основе сравнительного анализа внешнеполитических моделей Казахстана и Кыргызстана раскрыты современные тенденции развития внешней политики Узбекистана. Обоснована необходимость формирования нового концептуального подхода, основанного на принципе «сбалансированной открытости» и активной многовекторной внешней политике в условиях трансформации глобальных и региональных процессов.

Ключевые слова: *внешняя политика, концепция внешнеполитической деятельности, стратегическая автономия, национальный суверенитет, региональная политика, добрососедство, экономическая дипломатия, интеграция, сбалансированная открытость, многовекторная внешняя политика.*

Evolution and transformation of Uzbekistan's foreign policy strategy

Anvar YULDASHEV,
Associate Professor at the Academy of Public Policy and Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Historical Sciences

Abstract: A comprehensive analysis of the evolution and transformation of the Foreign Policy Concept of the Republic of Uzbekistan, adopted in 2012, is presented, with particular attention to its role in strengthening national sovereignty and ensuring strategic autonomy. In the context of the proactive regional policy pursued after 2016 and the development of a “belt of good neighborliness,” selected aspects of the concept related to economic diplomacy and integration processes are examined. A comparative analysis of the foreign policy models of Kazakhstan and Kyrgyzstan is used to identify contemporary trends in Uzbekistan’s foreign policy development. The need for a new conceptual approach based on the principle of “balanced openness” and an active multi-vector foreign policy amid changing global and regional dynamics is substantiated.

Keywords: *foreign policy, Foreign Policy Concept, strategic autonomy, national sovereignty, regional policy, good neighborliness, economic diplomacy, integration, balanced openness, multi-vector foreign policy.*

O‘zbekiston Respublikasining 2012-yilda qabul qilingan Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi (2012-yil 10-sentyabrda imzolangan O‘RQ-330-sonli Qonun) xalqaro tizimning postbipolyar transformatsiyasi sharoitida mamlakat tashqi siyosatining asosiy tamoyillari va ustuvor yo‘nalishlarini, suvereniteti, xavfsizligi hamda barqaror rivojlanishini ta’minlashga qaratilgan, strategik yondashuvni mustahkamlab bergan muhim normativ-huquqiy hujjat bo‘lib, shuningdek, global va mintaqaviy aktorlar bilan o‘zaro munosabatlar doirasini ham belgilab berdi.

Hujjat hozirda Milliy qonunchilik bazasida (Lex.uz) mavjud bo‘lmasa-da, Qonunga havola Senat Kengashi qarori matnida saqlanib qolgan. “Gazeta.uz” nashri

2012-yil 4-avgustdagi materialida yozganidek, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi “O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosiy faoliyati konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Qonunni qabul qildi. Mazkur Qonun quyidagi asosiy qoidalarni o‘z ichiga oladi:

1. O‘zbekiston davlat va xalqning oliy manfaatlari, uning farovonligi va xavfsizligi, mamlakatni modernizatsiya qilishning ustuvor yo‘nalishlari, amaldagi milliy qonunchilik va qabul qilingan xalqaro majburiyatlardan kelib chiqib, ittifoqlarga kirish, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga qo‘shilish, shuningdek, ulardan chiqish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

2. O‘zbekiston tinchlikparvar siyosat yuritadi va harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaydi hamda harbiy-siyosiy blokka aylantirilgan taqdirda har qanday davlatlararo tuzilmadan chiqish huquqini o‘zida saqlab qoladi.

3. O‘zbekiston qo‘shni davlatlardagi qurolli mojarolar va keskinlik o‘choqlariga aralashuvining oldini olish uchun siyosiy, iqtisodiy va boshqa choralarni ko‘radi hamda o‘z hududida xorijiy harbiy bazalar va inshootlarning joylashtirilishiga yo‘l qo‘ymaydi.

4. Konstitutsiya, “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonun va Harbiy doktrinaga muvofiq, O‘zbekiston Qurolli Kuchlari faqat mamlakatning davlat suvereniteti va hududiy yaxlitligini, aholisining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi hamda xorijdagi tinchlikparvarlik operatsiyalarida qatnashmaydi.

Shu bilan bir qatorda, xalqaro muhitdagi jiddiy o‘zgarishlar – ko‘pqutblilikning kuchayishi, mintaqaviylashuvning ortishi, xavfsizlik tahdidlarining transformatsiyasi hamda 2016-yildan keyin O‘zbekistonda amalga oshirilgan ichki islohotlar 2012-yilgi Konsepsiyani zamonaviy realliklar nuqtayi nazaridan yanada takomillashtirish va yangilash masalasini kun tartibiga qo‘ydi.

Buning tasdig‘i sifatida 2026-yil 15-yanvar kuni Tashqi ishlar vazirligi hamda xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyati masalalariga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida davlatimiz rahbari tomonidan dunyoda keskin geosiyosiy o‘zgarishlar va davlatlar suverenitetiga tahdidlar kuchayib borayotgan murakkab davrda O‘zbekiston Tashqi ishlar vazirligi va xorijdagi diplomatik vakolatxonalar faoliyatini yangicha tashkil qilish, Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasini yangilash hamda uning ustuvor yo‘nalishlarini qayta ko‘rib chiqish zarurligi ta’kidlandi. Shuningdek, yangi konsepsiya mamlakatning uzoq muddatli strategik maqsadlari, ichki islohotlar mantig‘i hamda iqtisodiy diplomatiya va xavfsizlik kabi sohalardagi milliy manfaatlarni o‘zaro bog‘liq holda aks ettirishi lozimligini qayd etdi.

Mazkur maqolani yozishdan maqsad O‘zbekiston Respublikasining 2012-yilda qabul qilingan Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasini kompleks tahlil qilish, uning muhim jihatlari va yanada takomillashtirish imkoniyatlarini aniqlash, Markaziy Osiyo davlatlari, xususan, Qozog‘iston va Qirg‘iziston tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyalari bilan qiyoslash hamda zamonaviy talablarga javob beradigan tarzda qayta ishlash bo‘yicha taklif va tavsiyalar

ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur tadqiqotning nazariy va empirik bazasini shakllantirishda xalqaro munosabatlar nazariyasiga oid fundamental asarlar hamda Markaziy Osiyo geosiyosatini o‘rganuvchi yetakchi xorijiy va mahalliy tadqiqotchilarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Adabiyotlarni o‘rganish jarayonida muammo uchta asosiy yo‘nalishga ajratilgan holda ko‘rib chiqildi.

O‘zbekistonning 2012-yilgi tashqi siyosat konsepsiyasining nazariy asoslarini tushuntirishda realizm maktabi namoyandalari Gans Ioxim Morgentau (Hans Morgenthau) va Kennet Nil Uoltsning (Kenneth Waltz) qarashlariga tayanildi. Ularning xalqaro tizimning anarxik xususiyati va davlatlarning o‘z xavfsizligini ta’minlashga intilishi haqidagi nazariyalari konsepsiyadagi suverenitet ustuvorligi va teng masofa saqlash tamoyillarini ilmiy jihatdan asoslaydi. O‘z navbatida, tashqi siyosatni zamonaviy sharoitlarga muvofiq takomillashtirish zaruratini asoslashda amerikalik siyosatshunoslar Robert Koxeyn (Robert Keohane) va Jozef Nay (Joseph Nye) kabi olimlarning liberal institutsionalizm nazariyasiga oid qarashlaridan ham foydalanildi. Xususan, Jozef Nayning zamonaviy dunyoda harbiy imkoniyatlar bilan bir qatorda, iqtisodiy salohiyat va “yumshoq kuch” (soft power) tobora muhim ahamiyat kasb etayotgani haqidagi xulosalari mamlakatning ochiqlik siyosatiga o‘tish mohiyatini ilmiy jihatdan yoritishga xizmat qiladi.

Mintaqadagi geosiyosiy jarayonlar va davlatlarning tashqi siyosiy xulq-atvorini baholashda Aleksandr Kulining (Alexander Cooley) tadqiqotlari muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Olim Markaziy Osiyoning xalqaro geosiyosiy jarayonlardagi ahamiyati ortib, yirik davlatlar manfaatlari o‘zaro kesishadigan muhim makonga aylanganini ta’kidlaydi . Bundan tashqari, Marta Brill Olkottning (Martha Brill Olcott) Markaziy Osiyo davlatlarida barqarorlikni ta’minlash masalalarining ustuvor ahamiyat kasb etishi haqidagi tezislari hamda Marlen Laruelning (Marlene Laruelle) mintaqa davlatlari tashqi siyosiy konsepsiyalarida markazlashgan boshqaruv va xavfsizlik masalalariga alohida e’tibor qaratilishi haqidagi ilmiy qarashlari 2012-yilgi hujjatning o‘ziga xos xususiyatlarini hamda uni zamonaviy sharoitlarga muvofiq yanada takomillashtirish imkoniyatlarini yoritishga xizmat qiladi. Shuningdek, O‘zbekiston tashqi siyosatidagi uzviylik va transformatsiya R. Turayeva hamda mintaqadagi tashqi o‘yinchilarning roli E. Ru-mer (E. Rumer) asarlarida keng tahlil qilingan bo‘lib, ular qiyosiy tahlil uchun ilmiy zamin yaratdi.

Mintaqaviy integratsiyaning davlat taraqqiyotidagi o‘rnini baholashda xalqaro tashkilotlarning, xususan, Jahon bankining (World Bank) hisobotlariga murojaat qilindi. Ushbu tadqiqotlar mintaqaviy integratsiyaning kuchayishi iqtisodiy o‘sishni jadallashtirishga xizmat qilishini ko‘rsatib, O‘zbekistonning pragmatik manfaatlarga asoslangan iqtisodiy diplomatiyasi va “faol pragmatizm” tamoyillarining empirik jihatdan samaradorligini yoritishga imkon beradi. Ushbu yondashuvlar sintezi maqolada yangi konsepsiyani shakllantirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qildi.

Tadqiqot metodologiyasi normativ-huquqiy hujjatlarni kontent-tahlil qilish, qiyosiy-siyosiy tahlil, tizimli yondashuv hamda xalqaro munosabatlar nazariyasining asosiy konseptual yondashuvlaridan foydalanishga asoslanadi. Kontent-tahlil orqali O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatiga oid normativ-huquqiy hujjatlarning mazmuni, ustuvor yo‘nalishlari va asosiy tamoyillari o‘rganildi. Qiyosiy-siyosiy tahlil asosida O‘zbekistonning tashqi siyosati Qozog‘iston va Qirg‘iziston tajribasi bilan taqqoslandi. Tizimli yondashuv tashqi siyosatni davlat strategiyasining o‘zaro bog‘liq tarkibiy qismi sifatida baholash imkonini berdi. Shuningdek, tadqiqot jarayonida realizm va neoliberal institutsionalizm kabi xalqaro munosabatlar Nazariyasiga oid yondashuvlardan foydalanildi.

Ma’lumki, 2012-yilda qabul qilingan Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi quyidagi asosiy tamoyillarni belgilab berdi:

milliy suverenitet va xavfsizlik ustuvorligi;

xalqaro huquq normalariga sodiqlik;

jahon kuch markazlaridan teng masofalik prinsipi (AQSh, Rossiya, Xitoy);

harbiy-siyosiy bloklarda ishtirok etmaslik;

Markaziy Osiyoni ustuvor mintaqaviy yo‘nalish sifatida belgilash.

Hujjat O‘zbekiston tashqi siyosatining evolyutsiyasini a ks ettirib, G‘arb bilan yaqinlashuv va keyinchalik muvozanatli munosabatlarni shakllantirish bosqichlarini o‘zida mujassam etgan hamda neytral va mustaqil tashqi siyosat strategiyasini mustahkamlagan edi.

O‘zbekistonning Tashqi siyosiy faoliyat konsepsiyasi shunchaki qog‘ozdagi reja emas, balki mamlakatning global siyosiy maydondagi strategik yo‘nalishlarini belgilab beruvchi “yo‘l xaritasi” hisoblanadi. Ularni aniq misollar va tahliliy sharhlar bilan izohlashga harakat qilamiz.

Ma’lumki, so‘nggi yillarda O‘zbekiston tomonidan olib borilayotgan teng masofalik tamoyili tashqi kuch markazlariga haddan tashqari bog‘liqlikning oldini olish va tashqi siyosiy manyovr imkoniyatlarini saqlashga xizmat qildi. Bu “barcha tuxumlarni bir savatga solmaslik” tamoyilining amaliy ifodasidir. O‘zbekiston biror-bir qudratli davlatning mutlaq ta’siriga tushib qolmasdan, o‘z milliy manfaatlaridan kelib chiqib qaror qabul qilish erkinligini saqlab qoldi. Bu unga “C5+1” (AQSh bilan), “Markaziy Osiyo – XXR”, “Markaziy Osiyo – Rossiya” va “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” kabi formatlarda teng huquqli ishtirok etish imkonini berdi.

Masalan, Ukrainadagi mojaro fonida O‘zbekiston Rossiya bilan strategik sheriklikni davom ettirmoqda, shu bilan birga, Yevropa Ittifoqi bilan Kengaytirilgan sheriklik va hamkorlik to‘g‘risidagi bitimni (EPCA) imzoladi. Bunday siyosiy manyovr O‘zbekistonga tashqi iqtisodiy xatarlarni kamaytirish va iqtisodiy aloqalar barqarorligini ta’minlash imkonini berdi.

Konsepsiya mamlakat suverenitetini normativ jihatdan mustahkamlashning huquqiy asosi bo‘lib xizmat qildi. O‘zbekiston davlat sifatida o‘zi uchun qaysi xalqaro tashkilotlarda ishtirok etish milliy manfaatlariga mos kelishini mustaqil ravishda belgilaydi. Bu mamlakatning o‘z milliy manfaatlari va strategik maqsadlaridan kelib

chiqib, mustaqil tanlov qilish huquqining amaliy ifodasidir.

O‘zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqida (YeOII) “kuzatuvchi” maqomida qolayotgani ushbu tashkilotga a’zo bo‘lishning ijobiy jihatlari va mavjud imkoniyatlarini yillar davomida sinchiklab o‘rganish imkonini bermoqda. Bunday yondashuv milliy ishlab chiqaruvchilar manfaatlari va bojxona siyosatidagi mustaqillikni ta’minlash zarurati bilan izohlanadi. Konstitutsiyaviy darajada xalqaro tuzilmalardan chiqish huquqining saqlanishi ham mazkur yondashuvning mantiqiy davomidir.

“Uzoqdagi qarindoshdan yaqindagi qo‘shni yaxshi”, degan iborani hamma biladi. Konsepsiyaning eng kuchli tomonlaridan biri Markaziy Osiyoning tashqi siyosatning mutlaq ustuvor yo‘nalishi sifatida e’lon qilinganidir. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari mexanizmining yo‘lga qo‘yilishi hamda Qirg‘iziston va Tojikiston bilan chegara masalalarining deyarli to‘liq hal etilishi ham buning amaliy tasdig‘i, desak bo‘ladi.

Mintaqadagi chegara va suv masalalarini o‘zaro manfaatli muloqot hamda hamkorlik asosida hal etishga qaratilgan yangi yondashuvlar natijasida O‘zbekiston qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarda barqarorlik va konstruktiv hamkorlikni ta’minlovchi muhim davlat sifatidagi mavqeini mustahkamlamoqda. Bu esa, geosiyosiy o‘yinchilar uchun mintaqaviy jarayonlarda O‘zbekistonning o‘rni va manfaatlarini hisobga olish zarurligini anglatadi.

Konsepsiyaning yana bir muhim jihati uning pragmatik xarakterga ega ekanligidir. Siyosat iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qilishi lozim. Tashqi ishlar vazirligining asosiy vazifalaridan biri investitsiyalarni jalb qilish va eksport bozorlarini kengaytirish etib belgilandi. Masalan, “Termiz – Mozori Sharif – Kobul – Peshovar” (Transafg‘on) temir yo‘li loyihasi shunchaki transport yo‘lagi emas, balki O‘zbekistonning dengiz portlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish orqali tashqi iqtisodiy aloqalarni diversifikatsiya qilish strategiyasining muhim yo‘nalishidir. Bunda siyosiy yondashuv pragmatik manfaatlarga, xususan, Janubiy Osiyo bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan.

O‘zbekistonning harbiy bloklarga qo‘shilmasligi va o‘z hududida xorijiy harbiy bazalarni joylashtirmasligi O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi , “Mudofaa to‘g‘risida”gi va “Mudofaa doktrinasi to‘g‘risida”gi Qonunlarida belgilab qo‘yilgan bo‘lib, mamlakatning mustaqil va tinchlikparvar tashqi siyosatini izchil amalga oshirish uchun muhim huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekistonning KXSHTga (ODKB) qayta a’zo bo‘lmaslik va xorijdagi harbiy amaliyotlarda qatnashmaslik pozitsiyasi yuqorida qayd etilgan qonunlarda belgilangan tamoyillarga muvofiq, mamlakatning boshqa davlatlar o‘rtasidagi mojarolarga bevosita jalb etilmasdan, mustaqil tashqi siyosiy pozitsiyasini saqlash imkonini beradi. Natijada, mamlakat mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan siyosatini izchil davom ettirib,

mavjud resurslarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo‘nalishlariga samarali yo‘naltirish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ushbu konsepsiya O‘zbekistonga nafaqat o‘z suverenitetini mustahkamlash, balki xalqaro maydonda “mustaqil ovoz”ga ega bo‘lish imkonini berdi. Bu, majoziy ma’noda, murakkab xalqaro sharoitda o‘z strategik yo‘nalishini aniq belgilagan va milliy manfaatlardan kelib chiqib, izchil harakat qilayotgan davlat siyosatini ifodalaydi.

Tashqi iqtisodiy bloklardan masofa saqlash strategiyasi mamlakatning yirik bozorlar va texnologik zanjirlar bilan integratsiyalashuv imkoni-yatlarini ma’lum darajada chekladi. Buning misoli sifatida O‘zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a’zo bo‘lish jarayonining 20-yil davomida sust kechganini ko‘rsatish mumkin. Mazkur yondashuv mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishga xizmat qilgan bo‘lsa-da, mamlakat eksport salohiyatini yanada kengaytirish imkoniyatlarini chekladi. Masalan, o‘zbek mahsulotlari xorijiy bozorlarga chiqishda yuqori bojxona to‘lovlariga duch kelgan, chunki imtiyozli savdo kelishuvlari yetarli darajada rivojlanmagan edi. Natijada, iqtisodiyotda xomashyo, jumladan, paxta, oltin va gaz eksportining ulushi yuqori darajada saqlanib qoldi.

Tashqi siyosatning iqtisodiy yo‘nalishini yanada rivojlantirish zarurati ham mavjud edi. Diplomatik korpusning iqtisodiy manfaatlarni ilgari surishga qaratilgan nazariy va amaliy vositalarini takomillashtirish ehtiyoji sezildi. 2017-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistonning xorijdagi elchixonalari faoliyatida investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish bo‘yicha aniq mas’uliyat mexanizmlarining yetarli darajada shakllanmagani buning misolidir. Diplomatlar faoliyati asosan siyosiy hisobotlar tayyorlash va rasmiy tashriflarni tashkil etishga yo‘naltirilgan edi. Xorijiy investor O‘zbekistonga kirishni rejalashtirgan hollarda elchixonalarning unga “yagona darcha” tamoyili asosida xizmat ko‘rsatish imkoniyatlari yetarli darajada rivojlanmagan edi. Bu esa to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (FDI) oqimini yanada oshirish zaruratini yuzaga keltirdi.

Deklaratsiya va amaliyot o‘rtasidagi uyg‘unlikni yanada mustahkamlash zarurati ham mavjud edi. Xalqaro rasmiy hujjatlarda “mintaqaviy hamkorlik” tamoyili ilgari surilgan bo‘lsa-da, amaliyotda qo‘shni davlatlar bilan munosabatlarda yechimini kutayotgan masalalar mavjud edi. Tojikiston bilan transport aloqalaridagi cheklovlar, temir yo‘l tarmoqlarining uzilishi, Qirg‘iziston bilan ayrim bahsli chegara hududlarida yuzaga kelgan kelishmov-chiliklar shular jumlasidan.

Konsepsiyada yaxshi qo‘shnichilik ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan bo‘lsa-da, amaliyotda Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi ayrim transport koridorlarining faoliyati cheklangan, suv masalasida esa manfaatlarni o‘zaro muvofiqlashtirish zarurati saqlanib qolgan edi. Mazkur holatlar mintaqaning yaxlit iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun hamkorlik mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini ko‘rsatdi.

Konsepsiyaning institutsional xususiyatlarini yanada rivojlantirish zarurati

ham mavjud edi. Tashqi siyosiy qarorlarni qabul qilishda vazirliklar, ekspertlar guruhlari va boshqa tegishli institutlarning ishtirokini yanada kuchaytirish tizimning barqarorligini ta’minlashga xizmat qiladi. 2000-yillarning o‘rtalarida O‘zbekistonning “G‘arb – Sharq” vektorlari o‘rtasidagi siyosiy yo‘nalishlarida sezilarli o‘zgarishlar kuzatildi. Masalan, 2005-yilda AQSh harbiy bazasining chiqarilishi va Rossiya bilan ittifoqchilik munosabatlari to‘g‘risidagi shartnomaning imzolanishi shular jumlasidan.

Tashqi siyosatda institutsional mexanizmlarning rivojlanganligi xorijiy sheriklar uchun strategik yo‘nalishlarning izchilligi va prognoz qilinuvchanligini ta’minlaydi. Tizim institutsional asosda faoliyat yuritsa, davlat rahbariyati almashgan taqdirda ham strategik yo‘nalishlarning izchilligi saqlanib qoladi. Shu jihatdan, avvalgi konsepsiyada mazkur mexanizmlarni yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, ularning takomillashtirilishi uzoq muddatli strategik investorlar uchun siyosiy barqarorlik va ishonchlilikni yanada oshirishga xizmat qilishi mumkin edi.

Konsepsiyaning zamonaviy o‘zgarish-larga moslashuvchanligini yanada oshirish zaruratini ham qayd etish lozim. Dunyoning raqamli va ekologik qiyofasidagi o‘zgarishlar konsepsiyada yetarli darajada aks ettirilmagan edi. Orol fojiasi, asosan, xalqaro ko‘mak va hamkorlik nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqilgan bo‘lib, “yashil diplomatiya” va global karbonat angidrid kvotalari kabi zamonaviy yo‘nalishlarni yanada keng qamrab olish imkoniyati mavjud edi. Davlatlararo munosabatlarda kibermakonni himoya qilish yoki “elektron hukumat” tajribasini almashish kabi masalalarni tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlari qatoriga yanada faol integratsiya qilish zarurati ham mavjud edi.

Mazkur jihatlarni takomillashtirish O‘zbekistonning xalqaro maydondagi yangi “o‘yin qoidalari”ga yanada samarali moslashishiga xizmat qilishi mumkin edi. Masalan, transmilliy kiberjinoyatchilik yoki pandemiya kabi xavflar yuzaga kelgan sharoitda diplomatik mexanizmlarning tezkor va muvofiqlashtirilgan harakat qilish imkoniyatlarini rivojlantirish zarurati yaqqol namoyon bo‘ldi.

Ushbu jihatlar 2012-yildagi Konsepsi-yaning o‘z davrida, avvalo, milliy suverenitet va xavfsizlikni ta’minlashga yo‘naltirilganini ko‘rsatadi. Bugungi kunda esa O‘zbekiston mazkur konseptual asoslarni yanada rivojlantirib, “ochiq eshiklar” va “faol pragmatizm” tamoyillariga asoslangan tashqi siyosatni izchil amalga oshirmoqda.

Qozog‘iston va Qirg‘izistonning tashqi siyosiy modellari Markaziy Osiyodagi ikki xil strategik yondashuvni ifodalaydi. Qozog‘iston yirik iqtisodiy salohiyatga ega davlat va global vositachi sifatidagi mavqeini mustahkamlashga intilsa, Qirg‘iziston kichik va ochiq iqtisodiyot sifatida moslashuvchanlik hamda tashqi iqtisodiy imkoniyatlardan samarali foydala-nish strategiyasini qo‘llaydi.

Quyida ushbu ikki davlatning qiyosiy tahlili aniq raqamlar va statistik ko‘rsatkichlar asosida keltirilgan.

Qozog‘iston modelining asosini yirik geosiyosiy kuchlar — Rossiya, Xitoy, AQSh

va Yevropa Ittifoqi o‘rtasida muvozanatni saqlagan holda, maksimal darajada investitsiyalarni jalb qilish tashkil etadi.

Qozog‘iston mintaqada xorijiy investitsiyalarni jalb qilish bo‘yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Mustaqillik yillarida Qozog‘iston iqtisodiyotiga 410 milliard AQSh dollaridan ortiq to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiya (FDI) kiritilgan. Bu Markaziy Osiyoga jalb qilingan jami investitsiyalarning qariyb 70 foizini tashkil etadi. Shuningdek, Qozog‘iston o‘zini global tinchlikparvarlik tashabbuslari va muzokaralar maydoni sifatida namoyon etdi. Misol tariqasida: Suriya bo‘yicha “Astana jarayoni”, Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkilotiga (YeXHT/OSCE) 2010-yildagi raisligi hamda BMT Xavfsizlik Kengashining 2017–2018-yillardagi muvaqqat a’zoligini ko‘rsatish mumkin.

Yevropa Ittifoqi Qozog‘istonning eng yirik savdo sheriklaridan biri bo‘lib, jami tashqi savdoning qariyb 30–40 foizini tashkil etadi. Xitoy va Rossiya ham mamlakatning asosiy savdo sheriklari qatoridan o‘rin olgan. Mazkur “uch tomonlama muvozanat” Qozog‘istonga tashqi siyosiy va iqtisodiy manfaatlarini muvozanatli tarzda ilgari surish imkonini beradi.

Qirg‘izis-ton tashqi siyosati iqtisodiy resurslarning nisbatan cheklanganligi va dengizga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyatining mavjud emasligi sharoitida liberal, ochiq va moslashuvchan yondashuvga asoslanadi. Qirg‘iziston mintaqada birinchi bo‘lib Jahon Savdo Tashkilotiga (JST/WTO) 1998-yilda a’zo bo‘lgan va 2015-yilda Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga (YeOII) qo‘shilgan.

Shu bilan bir qatorda, Qirg‘iziston YIMining qariyb 25–33 foiziga teng mablag‘lar (taxminan 2,5–3 mlrd AQSh dollari) xorijda, asosan, Rossiyada faoliyat yuritayotgan mehnat migrantlari tomonidan yuboriladigan pul o‘tkazmalari hissasiga to‘g‘ri keladi . Bu xalqaro miqyosda yuqori ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi. Davlat tashqi qarzi YAIMning 43 foiziga yaqinlashgan (2022-yil) va uning muayyan qismi Xitoyning “Eksimbanki” hissasiga to‘g‘ri keladi: 2021-yilda – 32,56 foiz, 2022-yilda – 26,6 foiz, 2023-yilda – 18,59 foiz.

Qirg‘iziston uzoq yillar davomida Xitoy tovarlarini MDH davlatlariga reeksport qilish orqali, jumladan, “Dordoy” va “Qorasuv” bozorlari imkoniyatlaridan foydalanib, tashqi savdo faoliyatini rivojlantirdi. Mazkur model mamlakat tashqi savdosining qo‘shni davlatlar bojxona siyosati bilan yuqori darajada o‘zaro bog‘liqligini shakllantirdi.

2016-yil O‘zbekiston tashqi siyosatida muhim transformatsiyalar boshlangan davr bo‘ldi. Ilgari qo‘llangan “mudofaaviy va ehtiyotkor” modeldan “ochiq, pragmatik va tashabbuskor” modelga o‘tish amalga oshirildi. Bu nafaqat siyosiy ritorikada, balki iqtisodiy ko‘rsatkichlarda ham o‘z aksini topdi. Ushbu transformatsiyaning asosiy yo‘nalishlarini aniq raqamlar va faktlar asosida ko‘rsatishga harakat qilamiz.

O‘zbekiston Markaziy Osiyoni tashqi siyosatning mutlaq ustuvor yo‘nalishi sifatida belgilab, mintaqaviy muammolarni “uchinchi tomon” ishtirokisiz hal qilish tashabbusini ilgari surdi.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari mexanizmi yo‘lga qo‘yildi. 2018-yildan buyon Ostona, Toshkent, Avaza, Cho‘lponota, Dushanbe va Toshkent shaharlarida 7-marta oliy darajadagi uchrashuv o‘tkazildi. Bungacha mintaqa rahbarlarining bunday formatdagi muntazam uchrashuvlari amaliyoti yetarli darajada shakllanmagan edi. Natijada, O‘zbekiston mintaqaviy hamkorlik va integratsiya jarayonlarini faol ilgari suruvchi davlat sifatidagi o‘z mavqeini mustahkamladi.

Qo‘shnilar bilan munosabatlarning yaxshilanishi doirasida eng muhim masalalar – chegara va suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha “kompromiss”, ya’ni o‘zaro manfaatli kelishuv siyosati tanlandi. Natijada, Qirg‘iziston va Tojikiston bilan chegara masalalari deyarli to‘liq hal etildi.

Qirg‘iziston bilan 2023-yil boshida davlat chegarasining so‘nggi uchastkalari, shu jumladan, Andijon suv ombori bo‘yicha tarixiy kelishuv imzolandi. Tojikiston bilan 2016-yilgacha savdo aylanmasi bor-yo‘g‘i 70 mln AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2024-yil yakuniga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 850 mln AQSh dollaridan oshdi, ya’ni 10-barobardan ziyod o‘sish qayd etildi . Tojikiston va Qirg‘iziston bilan vizasiz rejimning joriy etilishi hamda nazorat-o‘tkazish punktlarining to‘liq ochilishi natijasida kunlik chegarani kesib o‘tuvchilar soni 100–200 kishidan 40–50 ming kishigacha yetdi. Tashqi ishlar vazirligi va elchixonalar iqtisodiy manfaatlarni ilgari suruvchi samarali diplomatik institutlarga aylantirildi. Tashqi savdo hajmi keskin oshdi va investitsiyaviy faollik kuchaydi. 2016-yilda O‘zbekiston-ning tashqi savdo aylanmasi taxminan 24 mlrd AQSh dollari bo‘lgan bo‘lsa, 2025-yil yakuniga ko‘ra, bu ko‘rsatkich 81,17 mlrd AQSh dollarini tashkil etdi, ya’ni qariyb 3,6-barobar o‘sdi .

Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumot-lariga ko‘ra, 2017-yilda xorijiy investitsi-yalar va kreditlar asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalarning 24,3 foizini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilda bu ko‘rsatkich 56,7 foizga yetdi va so‘nggi 20-yildagi yuqori natijalardan biri qayd etildi. Ularning umumiy hajmi 201,7 trln so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, O‘zbekiston Yevropa Ittifoqining GSP+ preferensiyalar tizimiga qo‘shildi, bu esa 6000 dan ortiq turdagi mahsulotlarni Yevropa bozoriga bojsiz eksport qilish imkoniyatini kengaytirdi. O‘zbekiston o‘z atrofida nizolardan xoli, iqtisodiy jihatdan o‘zaro bog‘langan va barqaror muhit yaratish strategiyasini ilgari surmoqda. Natijada, Markaziy Osiyo yagona energetika halqasining qayta tiklanishi hamda qo‘shma sanoat zonalarini tashkil etish jarayonlari jadallashdi.

Qozog‘iston va Qirg‘iziston bilan avtomobil yig‘ish, to‘qimachilik va maishiy texnika ishlab chiqarish bo‘yicha qo‘shma korxonalar ishga tushirildi. “Xitoy – Qirg‘iziston – O‘zbekiston” temir yo‘li qurilishi bo‘yicha amaliy ishlar boshlandi. Ushbu yo‘lak yuk tashish vaqtini 10–15-kunga qisqartirish imkonini beradi.

O‘zbekistonning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo ulushi umumiy tashqi savdoda 2016-yildagi 10 foizdan 2025-yil

yakunlariga ko‘ra, 15,4 foizga yetdi, bu taxminan 11,6 mlrd AQSh dollarini tashkil etadi .

1-jadval.
Tahliliy xulosa: 2016-yilgacha va undan keyingi vaziyat

Ko‘rsatkich	2016-yilgacha	2024-yil holatiga
Mintaqaviy siyosat	Ehtiyotkor va cheklangan hamkorlik	Ochiqlik va yetakchilik
Chegara muammolari	Minalashtirilgan hududlar, yopiq yo‘llar	Do‘stlik ko‘priklari, ID-karta bilan o‘tish
Tashqi savdo (AQSh dollari)	~24 mlrd	~63 mlrd
Investitsiya muhiti	Valyuta cheklovlari, nisbatan yopiq bozor	Erkin konvertatsiya, xususiy-lashtirish

**Muallif ishlanmasi*

Garchi O‘zbekistonning asosiy savdo sheriklari Xitoy va Rossiya bo‘lib qolayotgan bo‘lsa-da, ular jami savdoning qariyb 40–45 foizini egallaydi, mintaqaviy savdoning 10 foizdan 15,4 foizgacha ko‘tarilishi quyidagi natijalarni anglatadi:

tashqi savdoning diversifikatsiyasi natijasida mamlakatning yirik global bozorlarga nisbatan iqtisodiy bog‘liqligi muvozanatlashib bormoqda;

savdoning asosiy qismida tayyor mahsulotlar va butlovchi qismlar, jumladan, avtomobilsozlik va to‘qimachilik mahsulotlari ulushi ortib bormoqda;

mintaqa ichidagi savdo xarajatlari kamayib, o‘zaro savdo aloqalarining samaradorligi oshmoqda.

2016-yildan keyingi tashqi siyosat O‘zbekistonning mintaqaviy va xalqaro geosiyosiy jarayonlardagi rolini sezilarli darajada kuchaytirib, uni mintaqaviy aloqalarni bog‘lovchi muhim markazlardan biriga aylantirdi. Ushbu o‘zgarishlar nafaqat siyosiy nufuzning oshishida, balki aholi farovonligi, iqtisodiy faollik va yangi ish o‘rinlarining yaratilishida ham o‘z aksini topmoqda.

Yuqoridagi ma’lumotlar, fikr va mulohazalardan kelib chiqqan holda ta’kidlash joizki, O‘zbekiston Respublikasining 2012-yilda qabul qilingan Tashqi siyosat konsepsiyasi davlat tashqi siyosiy kursini institutsionallashtirish hamda uning strategik avtonomiyasini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etdi. Biroq hozirgi bosqichda mazkur hujjat normalarini mamlakatning amaliy tashqi siyosiy faoliyatidagi yangi tendensiyalar bilan yanada uyg‘unlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Jumladan, 2016-yildan keyin O‘zbekiston tashqi siyosatida ochiqlikning kuchayishi, mintaqaviy hamkorlikning faollashuvi va xalqaro muloqot ko‘lamining kengayishi bilan tavsiflanuvchi sezilarli o‘zgarishlar yuz berdi. Mazkur o‘zgarishlar nisbatan ehtiyotkor tashqi siyosiy yondashuvdan yanada proaktiv va tashabbuskor modelga o‘tishni anglatadi. Shu bilan birga, konsepsiya amerikalik siyosatshunos Aleksandr Kuli ta’kidlaganidek, asosan, suverenitetni ta’minlash va qo‘shilmaslik siyosatini amalga oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, iqtisodiy diplomatiya hamda mintaqaviy integratsiya masalalarini yanada keng rivojlantirish imkoniyatlari mavjud edi. Hozirgi sharoitda tashqi siyosat tobora ko‘p geoiqtisodiy xususiyat kasb etayotgan bir paytda, mazkur yo‘nalishlarni konseptual jihatdan yanada mustahkamlash uning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Qo‘shimcha omil sifatida xalqaro muhitning o‘zgarishi, xususan, ko‘pqutblilikning kuchayishi, geoiqtisodiy raqobatning o‘sishi va mintaqaviy birlashmalar rolining ortishi namoyon bo‘lmoqda. Bunday sharoitda tashqi siyosatning mavjud konseptual asoslarini yangi realliklarga mos ravishda qayta ko‘rib chiqish va adaptatsiya qilish talab etiladi.

Hozirda tashqi siyosatning iqtisodiy tarkibiy qismi kuchayib borayotgani alohida ahamiyat kasb etmoqda. So‘nggi yillarda iqtisodiy diplomatiya xalqaro maydonda milliy manfaatlarni ilgari surishning asosiy instrumentlaridan biriga aylandi. Bu holat ham O‘zbekiston tashqi siyosatining konseptual asoslarini yangilash zaruratini tasdiqlaydi.

Shunday qilib, rasman mustahkamlangan tashqi siyosiy doktrina bilan davlatning amaliy diplomatik faoliyati o‘rtasidagi uyg‘unlikni yanada mustahkamlash zarurligini qayd etish mumkin. Mazkur holat 2012-yilgi Tashqi siyosat konsepsiyasini zamonaviy xalqaro va ichki taraqqiyot sharoitlariga muvofiqlashtirish maqsadida qayta ko‘rib chiqishning obyektiv zaruratini belgilab beradi.

2012-yilgi Konsepsiya O‘zbekiston tashqi siyosatini institutsionallashtirishda muhim rol o‘ynadi va strategik avtonomiyani ta’minlashga xizmat qildi. Biroq hozirgi sharoitda uning ayrim yo‘nalishlarini zamonaviy talablar asosida yanada takomillashtirish zarurati yuzaga kelmoqda. Jumladan, iqtisodiy yo‘nalishni kuchaytirish, integratsiya jarayonlarini yanada rivojlantirish hamda yangi global chaqiriqlarga moslashuvchanlikni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Qiyosiy tahlil natijalari faol ko‘p vektorlilik modelining zamonaviy tashqi siyosat sharoitida samarali yondashuvlardan biri ekanini ko‘rsatadi.

O‘zbekistonga ochiqlik, iqtisodiy samaradorlik, mintaqaviy yetakchilik va institutsional barqarorlikka asoslangan yangi tashqi siyosat konsepsiyasi zarur. Yuqoridagi tahlillar asosida shakllantirilgan xulosa nafaqat o‘tmishga berilgan baho, balki kelajak uchun strategik “yo‘l xaritasi” bo‘lib xizmat qilishi lozim. 2012-yilgi Konsepsiya o‘z davrida mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini ta’minlashga xizmat qilgan muhim konseptual asos bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda O‘zbekistonga “taraqqiyot ko‘prigi” vazifasini bajaruvchi yangi

konseptual hujjat zarur.

2012-yilgi Konsepsiyaning eng katta yutuqlaridan biri strategik avtonomiyani ta'minlashga xizmat qilganidir. U mamlakatning turli harbiy-siyosiy bloklarga jalb etilishining oldini olish va mustaqil tashqi siyosat yuritish imkoniyatlarini saqlashga xizmat qildi. Shu bilan birga, bugungi geosiyosiy va geoiqtisodiy voqelik mazkur modelni yangi sharoit va vazifalarga mos ravishda yanada rivojlantirishni talab etmoqda. Globallashuv sharoitida milliy resurslardan samarali foydalanish bilan bir qatorda, xalqaro iqtisodiy integratsiya imkoniyatlaridan keng foydalanish iqtisodiy o'sishni jadallashtirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Raqamlar shuni ko'rsatadiki, integratsiyalashgan iqtisodiyotlarda, jumladan, JST a'zolari orasida iqtisodiy rivojlanish uchun keng imkoniyatlar shakllanadi.

Iqlim o'zgarishi, jumladan, Orol fojiasi va suv tanqisligi, shuningdek, kiberhujumlar hamda pandemiyalar kabi zamonaviy tahdidlar davlat chegaralari doirasida cheklanmaydi. Shu sababli bunday muammolarni hal etishda qo'shilmaslik tamoyili bilan bir qatorda, faol xalqaro hamkorlik va global tashabbuslarda ishtirok etish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Markaziy Osiyo bugungi kunda nafaqat yirik kuchlar – Xitoy, Rossiya, AQSh va Yevropa Ittifoqi manfaatlari kesishadigan hudud, balki o'zaro manfaatli hamkorlik va tranzit aloqalarini rivojlantirish imkoniyatiga ega strategik makon sifatida shakllanmoqda. Bu esa ehtiyotkor neytrallikdan faol vositachilik va tashabbuskor mintaqaviy siyosatga o'tishni taqozo etadi.

Yangi tashqi siyosat konsepsiyasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish bo'yicha quyidagilar tavsiya etiladi:

1. Tashqi siyosiy faoliyatda iqtisodiy diplomatiyani institutsionallashtirish.

a) Elchixonalar faoliyati uchun KPI tizimini joriy etish. Har bir elchixona va diplomat faoliyati uchun jalb qilingan investitsiyalar hajmi, eksport qilingan mahsulotlar qiymati hamda jalb etilgan sayyohlar soni kabi aniq ko'rsatkichlarni belgilash;

b) "Yagona iqtisodiy darcha" xizmatini tashkil etish. Elchixonalar qoshida xorijiy investorlarga huquqiy va konsalting xizmatlarini ko'rsatuvchi maxsus markazlarni tashkil etish.

2. Mintaqaviy yetakchilik va uzoq muddatli Markaziy Osiyo hamkorligi.

a) Qo'shni davlatlar bilan nafaqat chegara masalalarini hal etish, balki qo'shma ishlab chiqarish zanjirlarini, masalan, mintaqaviy avtomobil klasterlarini yaratish;

b) suv va energetika diplomatiyasini rivojlantirish. Mintaqada suv resurslarini boshqarish bo'yicha raqamli monitoring tizimini joriy etish hamda "energetika halqasi"ni to'liq modernizatsiya qilish.

3. Yangi yo'nalishlar: "yashil" va "raqamli diplomatiya".

a) "Yashil" koridorlarni yaratish. Xalqaro iqlim fondlaridan grantlar jalb qilish uchun maxsus "Iqlim diplomatiyasi" bo'limini tashkil etish;

b) kibermudofaa sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish. Xalqaro maydonda

kiberxavfsizlik bo‘yicha mintaqaviy markaz tashkil etish tashabbusi bilan chiqish.

4. “Yumshoq kuch” (Soft Power) imkoniyatlaridan foydalanish.

a) Xorijda o‘zbek tili va madaniyati markazlarini ko‘paytirish, “Ipak yo‘li” brendini global miqyosda ilgari surish orqali turizm oqimini yiliga 15 mln kishiga yetkazish;

b) istiqbolda “muvozanatlangan ochiqlik” modeliga erishish.

Fikrimizcha, O‘zbekiston uchun eng samarali model – bu “muvozanatlangan ochiqlik” modelidir. Uning formulasi quyidagicha:

Strategik mustaqillik + iqtisodiy integratsiya = barqaror taraqqiyot

2-jadval.
O‘zbekiston tashqi siyosatining amaldagi va tavsiya etilayotgan konseptual tamoyillarining qiyosiy tavsifi

Yo‘nalish	Avvalgi tamoyil	Tavsiya etilayotgan tamoyil
Maqsad	Xavfsizlik va suverenitet	Iqtisodiy farovonlik va yetakchilik
Uslub	Ehtiyotkor neytrallik	Faol ko‘p vektorlilik
Mintaqa	Qo‘shnilar bilan ehtiyotkor munosabatlar	Mintaqaviy integratsiya drayveri
Global maydon	Kuzatuvchi	Tashabbuskor ishtirokchi

**Muallif ishlanmasi*

O‘zbekistonning yangi tashqi siyosiy konsepsiyasi mamlakatning yangilangan Konstitutsiyasiga mos bo‘lishi, milliy manfaatlarni nafaqat himoya qilish, balki xorijda faol ilgari surishga ham xizmat qilishi kerak. Bunday yondashuv O‘zbekistonning mintaqaviy yetakchilik salohiyatini yanada mustahkamlash hamda uni global iqtisodiy tizimning muhim va ajralmas bo‘g‘iniga aylantirishga xizmat qiladi.

Manba va adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. — Тошкент: O‘zbekiston, 2023. — 80 б.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Мудофаа тўғрисида»ги Қонуни, 1992 йил 3 июль, 641-XII-сон (2001 йил 11 майдаги 211-II-сонли Қонун таҳририда; кейинги ўзгартиш ва қўшимчалар, жумладан, 2023 йил 28 ноябрдаги ЎРҚ-880-сонли Қонун билан киритилган) // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. — 2001. — № 5. — 80-модда; Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. — 29.11.2023. — № 03/23/880/0905. — URL: https://lex.uz/docs/108083.

3. Ўзбекистон Республикасининг «Мудофаа доктринаси тўғрисида»ги Қонуни, 2018 йил 9 январь, ЎРҚ-458-сон (2021 йил 21 апрелдаги ЎРҚ-683-сон ва 2023 йил 28 ноябрдаги ЎРҚ-880-сонли Қонунлар билан киритилган ўзгартишлар билан) // Қонунчилик маълумотлари миллий базаси. — URL: https://lex.uz/docs/3495885.

4. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенатининг 2012 йилдаги фаолияти тўғрисида: Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати Кенгашининг 29.12.2012 йилдаги КҚ-45-II-сон қарори // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси палаталарининг Ахборотномаси. — 2012. — № 12. — 378-модда.

5. Узбекистан не будет участвовать в военно-политических блоках // Gazeta.uz. — 04.08.2012. — URL: https://www.gazeta.uz/ru/2012/08/04/concept/.

6. Ташқи ишлар вазирлиги ва хориждаги дипломатик ваколатхоналар фаолиятини янгича ташкил қилиш вазифалари белгилаб олинди // Ўзбекистон Республикаси Президентининг расмий веб-сайти. — URL: https://president.uz/uz/lists/view/8861.

7. Моргентау Г. Политические отношения между нациями: борьба за власть и мир // Теория международных отношений: хрестоматия / под ред. П. А. Цыганкова. — М.: Гардарики, 2002. — С. 72–88.

8. Уолтц К. Н. Теория международной политики. — М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2002. — 448 с.

9. Keohane R. O. After Hegemony: Cooperation and Discord in the World Political Economy. — Princeton, N.J.: Princeton University Press, 1984. — 290 p.

10. Nye J. S. Soft Power: The Means to Success in World Politics. — New York: PublicAffairs, 2004. — 191 p.

11. Cooley A. Great Games, Local Rules: The New Great Power Contest in Central Asia. — New York: Oxford University Press, 2012. — XIV, 252 p. — ISBN 978-0-19-992982-5.

12. Олкотт М. Б. Центральная Азия: второй шанс. — Вашингтон: Фонд Карнеги, 2010. — 210 с.

13. Laruelle M., Peyrouse S. Globalizing Central Asia: Geopolitics and the Challenges of Economic Development. — Armonk, NY: M. E. Sharpe, 2013.

14. Turaeva R. Uzbekistan's Foreign Policy: Transformation and Continuity. — 2022.

15. Rumer E. Russia in Central Asia: A Mission Impermanent. — Washington, D.C.: Carnegie Endowment for International Peace, 2019. — 108 p.

16. Итоги года от Нацбанка КР: как изменился объем трансграничных денежных переводов за 2025 год? // Banks.kg. — URL: https://banks.kg/news/15-percent-gdp-migrants-kr-national-bank-remittances-2025.

17. Reordering Central Asia: China’s Emerging Economic Hierarchy // Foreign Policy Research Institute. — 2026. — URL: https://www.fpri.org/article/2026/05/reordering-central-asia-chinas-emerging-economic-hierarchy/.